

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
FİZİKA FAKULTETİ  
“FİZİKA” KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”



Namangan davlat universiteti

rektori

S.T.Turg'unov  
2024 yil

IKKINCHI OLİY TA'LIMGA KIRISH IMTIHON  
DASTURI VA BAHOLASH MEZONLARI  
“Mutaxassislik” fani

60530900-Fizika

Namangan – 2024-yil

Namangan davlat universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullagan. 2024-yil 30 may dagi 14-sonli majlis bayoni.

**B.T. Abdulazizov**

Namangan davlat universteti Fizika kafedrasi mudiri, fizika-matematika fanlari doktori, v.v.b., prof.

Tuzuvchilar:

**Sh.T. Inoyatov**

Namangan davlat universteti Fizika o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri, fizika-matematika bo‘yicha falsafa doktori PhD.

**A.B. Nabihev**

Namangan davlat universteti Fizika kafedrasi katta o‘qituvchisi, fizika-matematika bo‘yicha falsafa doktori PhD.

Taqrizchilar:

**X.A. Mo‘minov**

Namangan muhandislik texnologiyalar instituti energetika kafedrasi dotsenti, fizika-matematika bo‘yicha falsafa doktori PhD.

## KIRISH

Ushbu dastur 60530900-Fizika ilm-fan va texnika sohasidagi ta'lim yo'nalishi bo'lib, u fanning turli tarmoqlarida Fizikani qo'llashning talablariga va amaliy faoliyatning turli sohalariga matematik usullarining kirib borishini o'rganish, soha istiqbolini belgilash, kasbiy ko'nikmaga, mutaxasislik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining bilim vositalari, usullari va uslublari majmuasini o'z ichiga oladi, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida maxsus fanlardan dars berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladi.

## ASOSIY QISM

Maktablarda Fizika darslarini o'qitishni samarali tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini shakillantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Fizika fanining umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilishi va fan o'qituvchisining faoliyati, Fizikaning turli formula va qoidalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

- Fizika ta'limining rivojlanishi va istiqbollari, Fizika fanida laboratoriya mashg'ulotlari, didaktik tamoyillar, dars shakllari, metodlari, Fizika fanidan tuziladigan o'quv me'yoriy xujjatlar, davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilish mezonlari va unga qo'yiladigan talablarni, metodik ishlarni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

- o'quvchilarning Fizika fani bo'yicha o'quv rejasi va dasturlar mazmunini; o'quv jarayonini tashkil etish va Fizika faniga oid rejalashtiruvchi xujjatlarni ishlab chiqish, Fizika fani darslarini olib borish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**;

- talaba amaliy malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi; Fizika fani mashg'ulotlarini o'tkazish; o'quv jarayonini rejalashtirish; o'quvchilar bilimini baholay olish; formula va qoidalardan foydalanish; darslarni tahlil qilish; darslarni pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil qilish va o'tkazish **malakalariga ega bo'lishi kerak**.

60530900-Fizika ta'lim yo'nalishidan ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchilar bilimlariga qo'yiladigan talablar:

- fizika fanining kirish qismiga oid materiallarni bilishi;
- nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llanish sohalarini bilish;
- laboratoriya mashg'ulotlari haqida dastlabki tushunchalarga ega bo'lishi;
- kompyuter texnologiyalari qo'llaniladigan turli sohalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish;
- jarayonlar va ob'yektlarni matematik modellashtirish va dasturiy ta'minlash orqali turli masalalarni yechish;

- fan, texnika, iqtisodiyot va boshqaruv sohasidagi turli masalalarni yechishning samarali metodlarini ishlab chiqish;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimining ta'lim muassasalarida Fizika va astronomiya fanlaridan dars berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash;
- kompyuter texnologiyalari va dasturlash;
- bilimlar injeneriyasi;
- tizimli yondoshuv mexanizmlarini tadbiq etish;
- kasbiy ta'lim didaktikasi;
- kasbiy ta'lim pedagogikasi va tashxis texnologiyasi;
- o'qitishning didaktik vositalari;
- ta'limning elektron vositalari.

### **Mexanika fani bo'yicha umumiy mavzular:**

#### **1. Mexanika.**

Kinematika asoslari. Mexanik harakat. Fazo, vaqt, sanoq sistemalari haqida tushuncha. To'g'ri chiziqli harakat. To'g'ri chiziqli tekis harakat. To'g'ri chiziqli tekis o'zgaruvchan harakat.

Egri chiziqli harakatda tezlik va tezlanish. Aylanma harakat. Yuqoriga tik otilgan va erkin tushayotgan jism harakati.

Gorizontal va gorizontga qiya otilgan jism harakati va ularning harakat tenglamasi. Jismning uchish vaqt, uchish uzoqligi, ko'tarilish balandligi. To'la, normal va tangensial tezlanishlar.

Jismarning o'zaro ta'siri. Kuch. Kuchlarni o'lhash. Kuchlarni qo'shish. Nuqtaga ta'sir etuvchi kuchlarning muvozanat sharti. Nyutonning 1-qonuni. Massa. Nyutonni 2-qonuning umumiy ko'rinishi. Inertsial sanoq sistemalari.

Funksiyaning uzluksizligi. Funksiya uzluksizligi ta'riflari. Uzluksiz funksiyalar ustida amallar. Murakkab funksiyaning uzluksizligi. Elementar funksiyalarning uzluksizligi. Uzluksiz funksiyalarning xossalari. Funksiyaning uzelishi, uzelishning turlari. Funksiyaning tekis uzluksizligi. Kantor teoremasi.

Nyutoning 3-qonuni va uning tadbiqi. Jismarning erkin tushishi. Og'rlik. Vaznsizlik. O'ta yuklanish.

Jismning erkin bo'limgan harakati. Impuls. Kuch va jism impulsi. Impuls saqlanish qonuni.

O'zgaruvchan massali jism harakati. Meshcherskiy tenglamasini keltirib chiqarish. Kuchning ishi. F.I.K.

Aniq integral. Aniq integral (Riman integrali) ta'riflari. Aniq integralning mavjudligi va integrallanuvchi funksiyalar sinfi. Integralning xossalari va uni

hisoblash. Integralni taqribiy hisoblash formulalari. Aniq integralning geometriyaga, fizikaga, mexanikaga tatbiqlari.

Mexanik energiya. Kinetik energiya. Jismning to‘la energiyasi. Energiyani saqlanish qonuni. Yerning tortishish maydonida jismning potentsial energiyasi. To‘liq noelastik va elasnik to‘qnashishlar.

Deformasiya va uning turlari. Elastiklik kuchlari. Mexanik kuchlanish. Mustahkamlik. Elastiklik moduli. Bikrlik. Deformatsiyalangan jism energiyasi.

Inersial sistemada jismning harakati. Aylanma harakat qilayotgan sistemada inersiya kuchlari. Burchak tezlik va chiziqli tezlik orasidagi bog‘lanish. Kariolis tezlanishi va kuchi. Fuko mayatnigi. Ber qonuni.

Ishqalanish turlari va ishqalanish kuchlari. Qovushoq ishqalanish. Stoks formulasi. Quruq ishqalanish. Sirpanish ishqalanish. Dumalanish ishqalanish.

Qattiq jismlarning ilgarilanma va aylanma harakati. Qo‘zgalmas o‘qqa ega bo‘lgan jismning muvozanat sharti. Jismning qo‘zg‘almas o‘q atrofida aylanma harakat qonuni va uning tenglamasi.

Impuls momentlari. Impuls momentining o‘zgarish qonuni. Og‘irlilik va inertsiya markazi, uni aniqlash usullari. Impuls momentining saqlanish qonuni.

Shteyner teoremasi va uning tadbipi. Qattiq jism inertsiya markazining harakat qonuni.

Qattiq jism uchun dinamikaning asosiy qonunlari. Aylanma va ilgarilanma harakat qilayotgan jismning kinetik energiyasi.

Erkin aylanish o‘qlari. Giroskoplari. Erkin giroskop o‘qining harakati. Giroskopik kuchlar.

Egri chiziqli va sirt integrallari. Birinchi tur egri chiziqli integral. Ikkinci tur egri chiziqli integral. Grin formulasi. Grin formulasining tatbiqlari. Birinchi tur sirt integrali. Ikkinci tur sirt integrali. Birinchi va ikkinchi tur sirt integrallari orasidagi bog‘lanish. Stoks formulasi. Ostrogradskiy formulasi.

Butun olam tortishish qonuni. Tortishishning potentsial energiyasi. Koinot mehanikasining asosiy qonunlari va uning isbotlari. Kepler qonunlari.

Yer yo‘ldoshi va kosmik apparatlarning harakati. I,II,III-kosmik tezliklar.

Moddaning agregat holatlari. Suyuqlikning statsionar oqishi. Ideal suyuqlik zarrasi uchun dinamikaning asosiy qonuni.

Suyuqliklar oqimida energiyaning saqlanish qonuni. Bernulli tenglamasi. Suyuqlik yoki gaz oqimining jismga ta’siri. Reynold soni.

Torrichelli formulasi. Magnus effekti. Ko‘tarish kuchi.

Davriy jarayonlar. Garmonik tebranma harakat, uning parametrлari. Amplituda, chastota, tebranishlar davri tushunchalari. Matematik mayatnik va uning kinematikasi, dinamikasi. Matematik mayatnik qonunlari.

Fizik mayatniklar, turlari, ularning harakat tenglamalari. Prujinali mayatnik, uning harakat tenglamasi, tebranish qonuniyatları. Kyoning teoremasining tadbiqi.

Xususiy tebranishlarda energiyaning o'zgarishi va uning grafigi. So'nuvchan tebranma harakat. So'nish dekrementi.

Majburiy tebranishlar. Majburiy tebranishlar va uning harakat tenglamasi. Rezonans.

Tebranishlarni qo'shish. Bienie(titplash). O'zaro perpendikulyar tebranishlarni qo'shish. Lissaju shakkllari.

To'lqin tushunchasi. Ko'ndalang va bo'ylama to'lqinlar. To'lqin sirti va fronti. Torning tebranishi.

Yassi sinusoidal to'lqin. To'lqin harakat energiyasi. To'lqin energiyasi oqimi. Umov vektori. To'lqin intensivligi.

To'lqin interferentsiyasi. Turg'un to'lqin. Akustika elementlari. Tovush parametrlari: kuchi, balandligi, tembri. Tovush bosimi. Tovush intensivligi. Tovush kuchi (qattiqligi).

Doppler effekti. Ultratovush va uni hosil qilish usullari.. Ultratovushning qo'llanilishi.

### **Molekulyar fizika fani bo'yicha umumiy mavzular:**

#### **2. Molekulyar fizika.**

Molekulyar fizikaga kirish. Modda haqida molekulyar –kinetik tasavvurlarning rivojlanish va uning tuzulishi haqidagi mumtoz va kvant fizikasi modellari

Modda xossalari. Moddaning xossalari o'rganishdagi dinamik, statistic va termodinamik usullari

Ideal gaz bosimi. Gaz-molekulyar kinetik nazariyasining asosiy tenglamasi. Temperatura. Ideal gaz holat tenglamasi

Ideal gaz qonunlari. Gaz molekulalarining tezliklari. Shtern tajribasi. Broun harakati.

Barometrik formula. Perren tajribasi. Bolsman qonuni.

Ehtimollik. Ehtimolliklar nazariyasining ayrim tushunchalari va ular ustida amallar.

Taqsimot funksiyasi. Gaz molekulalarining komponentalari bo'yicha taqsimoti.

Molekulalarning tezliklar bo'yicha taqsimoti. Maksvell-Bolsman taqsimoti.

Nisbiy tezliklar bo'yicha Maksvel taqsimoti. Gaz molekulalarining o'rtacha arifmetik va eng katta ehtimolli tezliklari.

Taqsimot qonunini eksperimental tekshirish. Fermi-dirak va Boze-Eynshteyn statistikasi to‘g‘risidagi tushuncha.

Ideal gazning ichki energiyasi. Issiqlik miqdori. Termodinamikaning 1-qonuni.

Ideal gazlarning issig‘lik sig‘imi. Bir atomli gazlarning issig‘ik sig‘imi.

Gazlarning issiqlik sig‘imi. Gazlarning issiqlik sig‘imi va molekulalarning erkinlik darajasi.

Ikki va ko‘p atomli gazlar. Ikki va ko‘p atomli gazlarning issig‘lik sig‘imlari. Teng taqsimot qonuni.

Gaz hajmining o‘zgarishida bajarilgan ish. Adiabatik jarayon. Adibatik jarayonda bajarilgan ish. Politropik jarayon.

Molekulyar harakatlar va ko‘chish hodisalari. Effektiv kesim yuzi. O‘rtacha erkin yugurish yo‘li. Diffuziya va modda ko‘chishi.

Nostatsionar va statsionar diffuziya.

Issig‘lik o‘tkazuvchanik hodisasi. Fur’e qonuni. Statsionar va nostatsionar issig‘lik o‘tkazuvchanlik.

Qovushoqlik. Ko‘chish koeffisiyentlari orasidagi bog‘lanish.

Molekulalararo o‘zaro ta’sir kuchlari. Gazlarning suyulishi. Eksperimental izotermalar.

Real gaz holat tenglamasi. Van-der-Vaals izotermalari.

Fazaviy o‘tish. Fazaviy diagrammalar

Kritik holat va parametrlar. Van-der-Vaals tenglamasini tajriba ma’lumotlari bilan solishtirish.

Van-der-Vaalsning keltirilgan tenglamasini. Mos holatlar qonuni

Qaytuvchan va qaytmas jarayonlar. Termodinamikaning Birinchi bosh qonuni. Siklik jarayon va Karno sikli.

Entropiya. Qaytar va qaytmas jarayonlarda entropiyaning o‘zgarishi. Klauzius tengsizligi. Termodinamikaning 2-qonuni.

Entropiya va ehtimollik. Entropiya va tartibsizlik. Termodinamikaning 3-qonuni. Manfiy temperaturalar.

Suyuqliklarning hajmiy xossalari. Suyuqliklardagi kuchlar. Suyuqlik chegarasidagi hodisalar. Sirt taranglik.

Kristall panjara va ularning turlari. Brav’ fazoviy panjaralar klassifikatsiyasi. Plimorfizm. Kristallar anizatropiyasi. Metallarda diffuziyaning mehanizmlari. Metallarning issig‘lik sig‘imi.

**60530900 – Fizika yo‘nalishidan ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumot olish bo‘yicha kiruvchi talabgorlar uchun mutaxassislik fanidan davogarlar bilimini baholash**

**MEZONLARI:**

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha kirish sinovi mavjud o‘quv dasturlari asosida tuzilgan savollar asosida amalga oshiriladi.

Har bir variantda 3 tadan savol bo‘lib, ulardan 1 tasi masala 2 tasi nazariy savolar hisoblanadi. Javoblar “2” bahodan “5” bahogacha baholanadi.

Variantdagi har bir savol uchun maksimal 5 baho belgilangan.

Variantdagi har bir savolga yozilgan javoblarning mazmuniga qarab, ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni to‘liq va ilmiyligi, mazmunan mukammalligi to‘la asoslanganligi uchun 5 baho qo‘yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni yaxshi yoritilgan va imtixon topshiruvchining ijodiy fikrlash darajasi mukammal bo‘lmasa, lekin mavzu to‘la yoritilgan bo‘lsa, 4 baho qo‘yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o‘rtacha yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan kamroq foydalanilgan bo‘lsa, 3 baho qo‘yiladi

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmagan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmagan bo‘lsa, 2 baho qo‘yiladi

Talabaning to‘plagan jami bali 3 ta savolga qo‘yilgan ballarning yig‘indisiga tengdir.

**60530900 – Fizika yo‘nalishidan ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumot olish bo‘yicha kiruvchilarning bilim darajasini sinash maqsadida tuzilgan savollar**

**I. Mexanika.**

1. Mexanik harakat. Fazo, vaqt, sanoq sistemalari haqida tushuncha.
2. Jismning uchish vaqt, uchish uzoqligi, ko‘tarilish balandligi.
3. Tennis koptogi 3 m balandlikdan yerga tushdi va yerdan qaytib ko‘tarilayotganda, 70 sm balandlikda tutib olindi. Koptokning yo‘li va ko‘chishini toping (m).
4. To‘g‘ri chiziqli harakat. To‘g‘ri chiziqli tekis harakat.
5. Aylanma harakat.
6. Biror jismning tekislikdagi harakati davomida koordinatalari (6;4) dan (9;8) ga o‘zgardi. Ko‘chish modulini toping (m)
7. To‘g‘ri chiziqli tekis o‘zgaruvchan harakat.
8. Yuqoriga tik otilgan va erkin tushayotgan jism harakati.
9. Turist gorizontga nisbatan  $30^\circ$  burchak hosil qilgan qiyalikda 200 m yo‘l bosdi. Turistning vertikal yo‘nalishdagi ko‘chishini aniqlang (m)
10. O‘rtacha tezlik
11. Burchak tezlik va chiziqli tezlik orasidagi bog‘lanish.
12. Chana gorizont bilan  $45^\circ$  burchak hosil qilgan tepalikdan pastlikka tomon 100 m masofani bosib o‘tdi. Chananing vertikal va gorizontal yo‘nalishlardagi ko‘chishini toping (m).
13. Gorizontal va gorizontga qiya otilgan jism harakati va ularning harakat tenglamasi.
14. Egri chiziqli harakatda tezlik va tezlanish.
15. Reaktiv samolyot 340 m/s tezlik bilan tekis uchganligi ma’lum bo‘lsa, uning to‘g‘ri chiziqli trayektoriya bo‘ylab 0,2 soat ichida ko‘chish modulini toping (m)
16. Kinematika asoslari.
17. Davr, chastota.
18. 9 m uzunlikdagi ip boshidan jo‘nagan chumoli ip oxiriga kelguncha 5 daqiqa o‘tdi. Chumoli tezligini toping (sm/s).
19. Matematik mayatnik va uning kinematikasi, dinamikasi.
20. Lissaju shakllari.
21. Piyodaning tezligi 3,6 km/soat. Undan yarim soat keyin yo‘lga chiqqan velosipedchi piyodani chorak soatdan so‘ng quvib yetishi uchun qanday tezlik bilan harakatlanishi kerak bo‘ladi (m/s)?
22. Torning tebranishi.

- 23.** Yer yo‘ldoshi va kosmik apparatlarning harakati.
- 24.** Velosipedchi A punktdan 19,8 km uzoqlashgach, tezligi velosipedchiniidan 10 marta katta tezlik bilan mototsiklchi yo‘lga chiqdi. Ular B punktga bir paytda kirib borgan bo‘lsalar, punktlar orasidagi masofa qancha bo‘lgan (km)?
- 25.** Ko‘ndalang va bo‘ylama to‘lqinlar.
- 26.** Erkin tushayotgan jism harakati.
- 27.** Katerning oqim bo‘yicha tezligi 72 km/soat, oqimga qarshi tezligi 50,4 km/soat bo‘lsa, oqim tezligini ( $m/s$ ) toping
- 28.** Erkin tushish
- 29.** Normal va tangensial tezlanishlar
- 30.** Qayiqning daryo oqimi bo‘ylab suzgandagi qirg‘oqqa nisbatan tezligi 3  $m/s$ , oqimga qarshi suzganda 2  $m/s$ . Daryo oqimining tezligi nimaga teng ( $m/s$ )?
- 31.** Gorizontal otilgan jism harakati
- 32.** Yuqoriga tik otilgan jism harakati.
- 33.** Turg‘un suvdagi harakat tezligi 3  $m/s$  bo‘lgan qayiq, kengligi 300 m va oqimining tezligi 1,8  $m/s$  bo‘lgan daryodan tik suzib o‘tmoqda. Oqim qayiqni qancha masofaga surib ketadi (m)?
- 34.** Erkin aylanish o‘qlari
- 35.** Matematik mayatnik qonunlari.
- 36.** Jism  $v_0$  boshlang‘ich tezlik va o‘zgarmas a tezlanish bilan tekis sekinlanuvchan harakat qilmoqda. Jismning tezligi qancha vaqt dan keyin 2 marta kamayadi?
- 37.** Nisbiy tezlik.
- 38.** Xususiy tebranishlarda energiyaning o‘zgarishi va uning grafigi.
- 39.** Ko‘lda birinchi kater boshlang‘ich teziksiz  $0,25 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan tekis tezlanuvchan, ikkinchi kater  $0,5 \text{ m/s}^2$  tezlanish va  $7,5 \text{ m/s}$  boshlang‘ich tezlik bilan tekis sekinlanuvchan harakat qilmoqda. Necha sekunddan keyin katerlarning tezliklari bir xil bo‘ladi?
- 40.** Kyoning teoremasining tadbipi.
- 41.** To‘g‘ri chiziqli notekis harakat.
- 42.** Jismning boshlang‘ich tezligi 10  $m/s$ , tezlanishi  $2 \text{ m/s}^2$  bo‘lsa, jism tezligini 2 marta orttirish uchun qancha masofani bosib o‘tishi kerak bo‘ladi (m)?
- 43.** Tezlik, tezlanish, yo‘l.
- 44.** So‘nuvchan tebranma harakat.

- 45.**Qiya nov bo'yicha ishqalanishsiz dumalayotgan sharcha harakatining birinchi sekundida  $3,6\text{ m}$  yo'l o'tdi. U harakatining uchinchi sekundida qancha yo'l o'tishini toping (m).
- 46.**To'lqin harakat energiyasi.
- 47.**Davr, chastota, aylanishlar soni.
- 48.**Tinch holatidan boshlab tekis tezlanuvchan harakat qilayotgan jism uchinchi sekundda  $5\text{ m}$  yo'l o'tsa, harakat boshidan  $9\text{ s}$  o'tgach, qancha yo'l bosgan bo'ladi (m)?
- 49.**To'lqin sirti va fronti.
- 50.**To'lqin energiyasi oqimi.
- 51.**Ikkita avtomobil bir punktdan bir yo'nalishda yo'lga chiqdi. Birinchi avtomobil  $9\text{ m/s}$  tezlik bilan tekis harakat qiladi. Ikkinchisi birinchisidan  $10\text{ s}$  keyin yo'lga chiqib,  $2\text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakat boshlagan bo'lsa, u qancha vaqtidan keyin birinchisini quvib yetadi (s)?
- 52.**So'nish dekrementi.
- 53.**O'zaro perpendikulyar tebranishlarni qo'shish.
- 54.**Boshlang'ich tezligi  $10\text{ m/s}$  bo'lgan jismning 3-sekundda bosib o'tgan yo'lini toping.
- 55.**Magnus effekti. Ko'tarish kuchi.
- 56.**Fizik mayatniklar, turlari, ularning harakat tenglamalari.
- 57.**Mashina 3 daqiqa ichida  $36\text{ km/soat}$  tezlik bilan, keyin 5 daqiqa davomida  $54\text{ km/soat}$  tezlik bilan, 10 daqiqa ichida  $72\text{ km/soat}$  tezlik bilan harakatlandi. Mashinaning o'rtacha tezligini toping ( $\text{km/soat}$ ).
- 58.**Rezonans.
- 59.**Chiziqli tezlik
- 60.**Avtomobil yo'lning  $1/3$  qismini  $v$  tezlik bilan, qolgan qismini  $2v$  tezlik bilan o'tsa, uning shu yo'ldagi o'rtacha tezligini hisoblab toping.
- 61.**Prujinali mayatnik , uning harakat tenglamasi, tebranish qonuniyatları.
- 62.**Umov vektori
- 63.**Erkin tushayotgan jism  $7\text{ m/s}$  boshlang'ich tezlikka ega bo'lsa, u  $2\text{ s}$  dan keyin qanday tezlikka erishadi ( $\text{m/s}$ )?  $g=9,8\text{ m/s}^2$
- 64.**Majburiy tebranishlar.
- 65.**Majburiy tebranishlar va uning harakat tenglamasi.
- 66.**Futbol koptogining yuqoriga ko'tarilish balandligini 16 marta orttirish uchun uning boshlang'ich tezligini necha marta orttirish kerak?

## **II. Molekulyar fizika.**

- 1.** Gaz hajmining o‘zgarishida bajarilgan ish.
- 2.** 400 K maksimal temperaturada bosim 2 MPa dan oshmasligi uchun 500 mol gaz saqlanadigan ballonning hajmi qanday bo‘lishi kerak (litr)?
- 3.** Agar kislород va vodorod gazlarining temperaturalari bir xil bo‘lsa, vodorod molekulalari o‘rtacha kvadratik tezligi kislорodnikidan necha marta katta bo‘ladi?
- 4.** Real gaz holat tenglamasi.
- 5.** Temperatura 30 K ga oshirilganda uning hajmi va bosimi 2 marta ortadi. Dastlabki temperaturani toping(K).
- 6.** Foydali ish koefitsiyenti 36 % bo‘lgan primusda har 1 minutda 3 g kerosin yonadi. Shu primusda 1 litr suvni  $10^0\text{C}$  dan qaynaguncha isitish uchun qancha 33 vaqt ketadi (min)?  $C=4200 \text{ J/kg}\cdot\text{K}$ ,  $q=35 \text{ MJ/kg}$ .
- 7.** Molekulalarning o‘rtacha erkin yugurish yo‘li uzunligi va molekulalarning to‘qnashuvlar soni
- 8.** Tashqi kuchlar ideal gaz ustida 500 J ish bajarishdi. Bunda gaz tashqi muhitga 300 J issiqlik beradi. Ushbu jarayonda gazning ichki energiyasi qanchaga o‘zgaradi(J).
- 9.** Xonada elektr pechkasini qo‘shilgandan so‘ng havoning harorat  $18^0\text{C}$  dan  $27^0\text{C}$  gacha oshganligi va xonadagi havoning bosim o‘zgarmaganligi ma’lum bo‘lsa, xonadagi havo molekulalarining soni necha foizga kamayganini aniqlang.
- 10.** Real gazlar va suyuqliklar
- 11.** Nasos gidravlik pressga moyni  $300 \text{ N/cm}^2$  bosim bilan yuboradi. Katta porshenning kesim yuzi  $900 \text{ cm}^2$  bo‘lsa, u qanday kuch bilan ta’sir etadi (kN)?
- 12.** Suyuqlikning chiziqli kengayish koefitsiyentini temperaturaga bog‘liqligi
- 13.** Gazning hajmini  $0^0\text{C}$  dagi hajmidan ikki marta orttirish uchun gazni necha gradusgacha izobar ( $P=\text{const}$ ) qizdirish kerak?
- 14.** Hajmi 10 litr bo‘lgan yopiq idishda 15 g kislорodning haroratini  $18^0\text{C}$  dan  $38^0\text{C}$  gacha ko‘tarilgan. Gazning isitilishdan oldingi va keyingi bosimi topilsin.
- 15.** Sirt taranglik koefitsiyenti
- 16.** Gazni  $1^0\text{C}$  izobar qizdirilganda uning hajmi ikki marta ortgan bo‘lsa, gazning boshlang‘ich temperaturasi qanday bo‘lgan?

17. Porshen ko'tarilganda  $10^4$  kgm ish bajarilishi uchun silindrda  $0^\circ\text{C}$  da bo'lgan  $4 \text{ m}^3$  havoni necha gradus izobar qizdirishi kerak? Porshen ostidagi havo  $1,5 \text{ atm}$  bosim ostida bo'ladi.
18. Gaz qonunlari.
19. Siqilgan gaz solingan ballondagi manometr  $27^\circ\text{S}$  temperaturada  $90 \text{ kG/sm}^2$  bosimni ko'rsatmoqda. Gaz  $-23^\circ \text{ C}$  gacha sovutilsa, manometr qanday bosimni ko'rsatadi? Sovutish natijasida, balloon sig'imining o'zgarishi nazarga olinmasin.
20.  $17^\circ\text{C}$  temperaturada  $25 \text{ g}$  kislorodning issiqlik harakat energiyasi nimaga teng?
21. Izobarik, Izoxorik, Izotermik
22. Hajmi  $V=3 \text{ dm}^3$  bo'lgan gazning temperaturasi  $T_1=300 \text{ K}$  dan,  $T_2=400 \text{ K}$  gacha qizdiriladi, hajmi temperaturaga proporsional o'zgaradi. Jarayonning oxirida gaz bosim  $P_0=10^5 \text{ Pa}$  ga teng. Shu jarayonda, bajarilgan ishni toping.
23.  $20^\circ\text{C}$  temperaturada ichki diametri  $1\text{mm}$  bo'lgan vertikal shisha naychadan suv tomchisi uzildi. Tomchining og'irligi qanday ( $\text{mN}$ )? Suvning sirt taranglik koeffisienti  $73 \text{ mN/m}$  ga teng.
24. Suyuqliklarning bug'lanishi va qaynashi
25.  $36 \text{ g}$  suvda  $2 \text{ g}$  vodorodga nisbatan, necha marta ko'p molekulalar borligini aniqlang.
26. Qanday haroratda, vodorod molekulalarining o'rtacha kvadrat tezligi  $3 \text{ km/s}$  bo'ladi?
27. Gaz molekulalarining o'rtacha arifmetik, o'rtacha kvadratik va eng kata ehtimolli tezliklari
28. Ideal gaz molekulalarining o'rtacha kvadratik tezligi  $10^3 \text{ m/c}$ , zichligi  $0,6 \text{ kg/m}^3$  bo'lsa, gaz bosimi qanday ( $\text{kPa}$ )?
29. Agar, ideal gazning absalyut temperaturasi  $4,5$  marta ko'tarilganda, bosim  $50\%$ ga oshgan bo'lsa, uning hajmi qanday o'zgargan?
30. Ideal gazning temperaturasi  $47^\circ\text{C}$  va hajmi  $25 \text{ l}$ . Bosim o'zgarmaganda, hajm  $12,5 \text{ l}$  ga teng bo'lishi uchun, gazni necha gradusgacha sovitish kerak?
31. Maxsus idishda  $4,8 \text{ atm}$  bosim ostida gaz bor. Agar, idishdagi gazning  $5/8$  qismi chiqarib yuborilsa, unda qanday bosim ( $\text{atm}$ ) qaror topadi? Harorat o'zarmas.
32. Issiqlik miqdori. Termodinamikaning 1-qonuni.
33. Silindr porsheni tagidagi gazning temperaturasini  $T_1=250^\circ\text{K}$  dan  $T_2=690^\circ\text{K}$  ga o'zgartirish uchun  $A=400 \text{ J}$  ish bajarilgan bo'lsa, porshen tagidagi vodorod massasini toping.

- 34.**Mendelev-Klapeyron tenglamasi
- 35.** $47^{\circ}\text{C}$  temperaturada  $32 \text{ gr}$  kislород  $83,1 \text{ l}$  hajmni egallaydi. Uning bosimini(kPa) toping.  $\mu=32 \text{ gr/mol}$
- 36.** $27^{\circ}\text{C}$  temperaturada simob bug‘larining bosimi  $0,75 \text{ Pa}$  ga teng bo‘lsa,  $1 \text{ sm}^3$  hajmdagi simob atomlarining soni qanday?  $k=1,38\cdot10^{-23} \text{ J/K}$
- 37.**Universal gaz doimiysining fizik ma’nosи
- 38.**Gazni  $20 \text{ K}$  izobarik isitish uchun  $70 \text{ J}$  issiqlik miqdori sarflangan bo‘lsa, shu gazni izoxorik ravishda  $20 \text{ K}$  ga isitish uchun qancha issiqlik miqdori(J) kerak bo‘ladi.
- 39.** $100 \text{ kPa}$  bosim ostida turgan gaz  $27^{\circ}\text{C}$  temperaturada  $2 \text{ l}$  hajmni egallaydi. bosim o‘zgarmas bo‘lganda gaz temperaturasi  $50^{\circ}\text{C}$  ga ko‘tarilganda qancha ish(kJ) bajarilgan?
- 40.**Gaz molekulاسining tezliklarini o‘lchash
- 41.**Alyuminiy silindrning massasi  $2 \text{ kg}$ . Agar temperaturasi  $27^{\circ}\text{C}$  dan  $327^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirilsa silindr qancha issiqlik miqdori (J) oladi. Alyuminiy uchun solishtirma issiqlik sig‘imi  $920 \text{ J/kg}^{\circ}\text{C}$
- 42.**Termodinamikaning birinchi qonuni
- 43.**Temperaturasi  $10^{\circ}\text{C}$  bo‘lgan  $1 \text{ kg}$  suvga  $200 \text{ g}$  qaynoq suv qo‘sib aralashma temperaturasini toping ( $^{\circ}\text{C}$ )
- 44.**Massasi  $2000 \text{ t}$  bo‘lgan poyezd tormoz yordamida to‘xtatildi. Poyezdnинг tezligi  $36 \text{ km/h}$  bo‘lsa, to‘xtash vaqtida ajralgan issiqlik miqdorini aniqlang (kJ).
- 45.**Qaytar va qaytmas jarayonlarda entropiyaning o‘zgarishi.
- 46.**Qaytar va qaytmas jarayonlar
- 47.**Zichligi  $1,5 \text{ kg/m}^3$ , bosimi  $45 \text{ kPa}$  bo‘lgan gaz molekulalarining o‘rtacha kvadratik tezligini toping ( $\text{m/s}$ ).
- 48.**Massasi  $2000 \text{ t}$  bo‘lgan poyezd tormoz yordamida to‘xtatildi. Poyezdnинг tezligi  $36 \text{ km/h}$  bo‘lsa, to‘xtash vaqtida ajralgan issiqlik miqdorini aniqlang (kJ).
- 49.**Issiqlik miqdori. Termodinamikaning 1-qonuni.
- 50.**Vodoprovod suvining harorati  $20^{\circ}\text{C}$  bo‘lsa,  $40^{\circ}\text{C}$  haroratli  $120 \text{ l}$  suv tayyorlash uchun qancha qaynoq suv kerak ( $l$ )?
- 51.**Avtomobil dvigatelining FIK  $\eta$  bo‘lsa, va  $t$  soat ichida  $m$  litr benzin sarf qilsa, dvigatelning quvvati  $N$  nimaga teng bo‘ladi?
- 52.**Gaz-molekulyar kinetik nazariyasining asosiy tenglamasi.
- 53.** $2 \text{ kW}$  quvvatli dvigatelning 1 soatda bajargan ishi qancha issiqlik ekvivalenti bo‘ladi (MJ)?
- 54.**Temperaturasi  $287^{\circ}\text{C}$  bo‘lgan azot molekulасining o‘rtacha kvadratik tezligi qanchaga teng bo‘ladi ( $\text{m/s}$ )?  $\mu=28 \text{ g/mol}$

- 55.**Gaz molekulalarining tezliklari. Shtern tajribasi.
- 56.**Gaz molekulalarining o‘rtacha arifmetik va eng katta ehtimolli tezliklari.
- 57.**420 m balandlikdan tushgan suv bajargan ishning 60 % i uning temperaturasini qanchaga ko‘taradi (K)?
- 58.**Fermi-dirak va Boze-Eynshteyn statistikasi to‘g‘risidagi tushuncha.
- 59.**Bir atomli gazlarning issig‘ik sig‘imi.
- 60.**17 °C temperaturada havo zichligi qanchaga teng ( $\text{kg}/\text{m}^3$ )? Atmosfera bosimi  $10^5 \text{ Pa}$  ga, havoning molyar massasi  $29 \text{ g/mol}$

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Douglas C. Giancoli. Physic sprinciples with applications. 2014
2. Tursunmetov K.A., Daliev X. S. Mexanika. T. Universitet - 2000.
3. Aleshkevich V.A Kurs obshey fiziki. Алешкевич В.А. Курс общей физики. Mexanika - M.: Fizmatlit, 2016.
4. Jearl Walker. Fundamentals of fysics. 2007. CERN 1541 p. (514 p.)
5. Sivuxin D.V Umumiy fizika kursi. Mexanika. O‘qituvchi . Toshkent-1984.
6. Strelkov S.P. Mexanika-Toshkent, o‘qituvchi, 1977.
7. Chertov A. Umumiy fizika kursidan masalalar to‘plami. Toshkent, O‘zbekiston, 1988 y.
8. Sedrik M.S. Umumiy fizika kursidan masalalar to‘plami. Toshkent, O‘qituvchi.
9. Matveyev A.N. Mexanika -M.: Vissaya shkola, 1981.
10. A.Nabihev Molekulyar fizika. O‘quv qo‘llanma. Namangan 2023y
11. Ahmadjonov O.I. Fizika kursi. Mexanika va molekulyar fizika. Toshkent, o‘qituvchi, 1985.
12. Xaykin S. E. Fizicheskiye osnovi mexaniki. M. “Nauka” 1971 g.
13. Volbkenshteyn V.S. "Umumiy fizika kursidan masalalar to‘plami" T. 1969.
14. Strelkov S.P. va boshqalar. Umumiy fizika kursidan masalalar to‘plami. Mexanika. Toshkent, o‘qituvchi, 1981.

### **Axborot manbalari**

1. Animatsion rolik (<http://www.upscale.utoronto.ca>. ba html,<http://tical ua.es>).
2. Fizika “Physicon”..
3. Fizikadan o‘quv kinofilmlari.
4. Ko‘rgazmali rangli rasmlar (<http://www.hord Wareanalysis com>.).
5. Phusics onlien”.
6. [www.cultinfo./fulltext/l/008/077/561/htm](http://www.cultinfo./fulltext/l/008/077/561/htm)
7. [www.en/edu.ru](http://www.en/edu.ru). Portal